


## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 29 534 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 20 435 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

### 2025- yil 1- oktabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 15 190 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 74,3 % ni tashkil etdi.

**2025- yil 1- oktabr holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da**



2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (45,9 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


**2025- yil 1- oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 36 694,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda, Yashash va ovqatlanish xizmatlariga (35,4 %), savdo xizmatlariga (18,3 %), transport xizmatlariga (14,8 %), moliyaviy xizmatlariga (11,0 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, % da**



2025- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 6 903,5 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2025- yil yanvar-iyun) choragiga nisbatan xizmatlar hajmi 12 910,1 mlrd. so'mga ko'paydi.

Joriy yilning (yanvar-iyun ) oldingi choragida nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga Yashash va ovqatlanish xizmatlari (4 366,0 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (2 513,6 mlrd. so'mga), transport xizmatlar (2 091,1 mlrd. so'mga), hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (435,4 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilning mos davrida Yashash va ovqatlanish xizmatlar – 10 730,7 mlrd. so'm, savdo xizmatlar – 5 715,6 mlrd. so'm, transport xizmatlari 4 315,9 mlrd. so'm va moliyaviy xizmatlar – 3 069,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>36 694,4</b>	<b>112,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 284,2	116,5
moliyaviy xizmatlar	4 030,2	129,1
transport xizmatlari	5 437,2	112,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 699,6	112,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	13 004,4	109,1
savdo xizmatlari	6 704,6	110,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	540,1	106,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 177,5	116,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	545,4	117,0
ijara xizmatlari	515,0	118,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	977,6	111,3
shaxsiy xizmatlar	954,5	108,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	245,4	97,3
boshqa xizmatlar	1 278,3	113,4

Eng yuqori o‘shish sur‘atlari moliyaviy xizmatlar 129,1 %, Ta’lim sohasidagi xizmatlar 116,1 % va Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 116,5 % , qayd etildi.

Nisbatan pastroq o‘shish sur‘atlari Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 97,3 %, Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlari 106,3 % hamda Savdo xizmatlar 110,9 % da kuzatildi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining beshdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlari tashkil etdi. 2025- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 18,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni yashash va ovqatlanish xizmatlari 35,4 %, transport xizmatlari 14,8 % egallaydi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 6 704,6 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 18,3 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari 989,0 mlrd. so‘mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste’mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

### Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



**ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,5**



**avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar 17,6**



**chakana savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari 70,9**


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 70,9 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,5 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 17,6 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

### 2025- yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da




2025- yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 1 284,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sishi 296,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 73,0 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 99,0 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 1,0 % ga to'g'ri keladi.


## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 4 030,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 129,1 % ni tashkil etdi.

## 2025- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (94,0 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter

texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1 177,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 116,1 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 13 004,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 35,4 % ga yetdi.


### **2025- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>36 694,4</b>	<b>112,8</b>
Qarshi sh.	6 168,9	118,0
Shahrisabz sh.	1 131,2	112,0
G'uzor	819,0	112,9
Dehqonobod	697,2	113,3
Qamashi	1 260,9	112,0
Qarshi	1 360,1	117,7
Koson	1 430,0	113,0
Kitob	1 600,0	112,6
Mirishkor	990,2	112,4
Muborak	1 159,9	112,9
Nishon	949,5	113,4
Kasbi	1 118,7	112,1
Ko'kdala	374,8	113,0
Chiroqchi	599,5	112,9
Shahrisabz	1 101,6	112,8
Yakkabog'	1 131,1	112,9
Taqsimlanmagan hajm	14 801,8	111,9

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (6 168,9 mlrd. so'm), Kitob tuman (1 600,0 mlrd. so'm), Koson tuman (1 430,0 mlrd. so'm), Qarshi tuman (1 360,1 mlrd. so'm) va Qamashi tuman (1 260,9 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Ko'kdala (374,8 mlrd. so'm), Chiroqchi (599,5 mlrd. so'm), Dehqonobod (697,2 mlrd. so'm), va G'uzor (819,0 mlrd. so'm) da kuzatilmoqda.


**2025- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar – 118,0 %, Qarshi tumani – 117,7 %, Kitob tumani – 112,6 Kasbi tumani 112,1 % va G'uzor tumanida 112,9 % kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda Respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


**2025- yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**



Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (16,8 %), Kitob tumani (4,4 %), Koson tumani (3,9 %) va Qarshi tuman (3,4 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Ko‘kdala (1,0 %), Chiroqchi tumani (1,6 %) va Dehqonobod (1,9 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati**  
(2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun)




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan hajm 1 703,1 ming so'mga oshib 10 002,6 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko'rsatkichga ega Qarshi shahrida 20 359,5 ming so'm, Muborak tumanida 12 095,3 ming so'mni tashkil etti.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (115,9 %), Qarshi tumanida (114,6 %), va Dehqonobod tumanida (111,1 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Mirishkor (110,1 %), Qamashi (109,4 %), Shahrisabz sh (110,9 %) va Ko'kdala (109,6 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2025- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (969,1 mlrd. so'm), Qarshi (480,9 mlrd. so'm) va Kitob (463,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (137,3 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 6 704,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi.


**2025- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlarining o‘rish sur‘ati, % da**



2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o‘rish sur‘ati Kasbi (118,8 %), Dehqonobod (118,0 %) va Nishon tumanlarida (116,0 %) kuzatildi.

Eng kam o‘rish sur‘ati Mirishkor tumani (102,5 %) va Chiroqchi tumanida (104,5 %) qayd etildi.

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Qarshi shahri (14,5 %) va Qarshi (7,2 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Ko'kdala tumanida (2,0 %) Chiroqchi (2,8 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi 5 437,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,9 % ni tashkil etdi.

### 2025- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi sh (633,5 mlrd. so'm) va Kitob tumanida (574,7 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Shahrisabz sh (59,7 mlrd. so'm) qayd etildi.